



2019 yil yanvar-oktyabr oylarida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yil yanvar-oktyabr oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 13043,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 8,1% ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 3,8% ga o'sishi hisoblangan.

Yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Samarqand viloyatida o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 92,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.



shundan:

ko'mir, lignit, neft va tabiiy gaz qazib olish
 tog'-kon sanoatining boshqa faoliyatlari

Mrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi %
0,2	0,2
92,3	99,8



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12559,1 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,3 % ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmogʻining ulushi 0,7 % ni, oʻrta-yuqori texnologiyali 27,2 % ni, oʻrta-quyi texnologiyali - 11,3 % ni va quyi texnologiyali - 57,2 % ni tashkil etdi.

shundan:

	<i>Mlrd. soʻm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi %</i>
oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	4965,9	39,5
toʻqimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish	2199,4	17,5
mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, taʼmirlash va oʻrnatish, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar va boshqa tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	3509,3	27,9
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	384,8	3,1
metallurgiya sanoati	594,2	4,7
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	5,8	0,05
yogʻoch va poʻkak buyumlar, pohl va toʻqish uchun materiallardan buyumlar, qogʻoz va qogʻoz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish	220,7	1,8
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	30,9	0,3
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	71,1	0,6
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	577,0	4,6

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 320,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ni) tashkil etdi.



shundan:

elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari

Mrld. so‘m

Jamiga nisbatan ulushi %

320,5

100

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.



shundan:

Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash

Mrld. so‘m

Jamiga nisbatan ulushi %

51,7

72,6

Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish


19,5

27,4

Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste‘mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 7731,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2018 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 4,5 % ga o‘shirishni ta‘minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 59,3 % ni tashkil etdi.


2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati





2018 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 67,2 % dan 2019-yil yanvar-oktyabr oyida 64,9 % ga pasayishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari hamda pivo 7,1 % ni (2018-yil yanvar-oktyabr oylarida 3,2 %) tashkil etdi.


2019 yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari o'sish sur'ati




Portlandsement




Tabiiy qum




O'simlik yog'i




Tamaki (segaret)




Asfalt




Yigirilgan ip



Xo'jalik sovuni



Mineral va kimyoviy o'g'itlar



Paxta tolasi


O'sish sur'atining ko'payishi

O'sish sur'atining kamayishi


Sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan	2019 yil yanvar-oktyabrda ishlab chiqarilgan
Portlandsement, t	877,3	7116
Tabiiy qum, ming t.	6,4	17,9
O'simlik yog'i, t	7536	7566
Tamaki (segaret), mln.dona	8358	8461
Asfalt, ming t.	49,8	63,7
Yigirilgan ip, t	443,2	1026,9
Xo'jalik sovuni, t	4980	4515
Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish ming t.	59,3	54,7
Paxta tolasi, ming t.	49,6	19,4

Bunga ko'ra ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan qiyoslaganda portlandsement - 8,1 m., Yigirilgan ip – 2,3 m. ga oshgan bo'lsa, Asfalt – 27,9 % ga, Xo'jalik sovuni – 10,3 % ga, Tabiiy qum - 2,8 % ga o'sishi hisoblandi.

Samarqand viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (2019 yil yanvar-oktyabr oylarida 2018 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan, %)



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5636,9 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 43,2 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining umumiy sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %

2018 yil yanvar-oktyabr




2019 yil yanvar-oktyabr



- Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
- Viloyatning boshqa korxonalari

2019 yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi
(mlrd. so'm)




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 44,4 %), Jomboy (15,5 %), Urgut, Toyloq (8,0 %) va Samarqand (7,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 7104,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 54,5 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Nurobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qo'shrabot (100,0 %), Samarqand (99,7 %), Urgut (97,8 %), Oqdaryo (96,5 %) va Toyloq (93,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqo'rg'on shahri (30,9 %), Narpay (23,5 %) va Jomboy (11,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)
Qayta ishlash sanoati

Sanoat mahsulotlari nomi	O'lchov birligi	2019-yil yanvar-oktyabr	O'sish sur'ati, %
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	 ming tonna	24,4	95,2 ↓
Aroq	 ming l. 100% spirt	409,9	30,2 ↓
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	 ming l. 100% spirt	195,9	87,3 ↓
Uzum vinosi	 ming l.	728,1	76,3 ↓
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	 ming l.	25943,0	93,4 ↓
Yumshoq bug'doy va spelta uni	 ming tn.	122,2	97,3 ↓

Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni (buxanka), og'irligi 600 g.		<i>tn.</i>	548,0	78,0	↓
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)		<i>tn.</i>	5946,0	79,5	↓
Paxta tolasi		<i>ming tn.</i>	19,4	39,1	↓
Paxta chigiti		<i>ming tn.</i>	31,8	50,0	↓
Paxta tiviti (lint)		<i>tn.</i>	1670,7	49,4	↓


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi		<i>mln.kVt/s</i>	74,7	120,1	↑
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)		<i>ming Gkal.</i>	64,1	135,2	↑

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 5896 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1533 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 26,0 %) Samarqand shahriga, 839 tasi (14,2%) Urgut tumaniga, 532 tasi (9,0 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019 yil 1 noyabr holatiga)



2019 yil yanvar-oktyabr oylarida viloyatda 1701 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi va tashkil etilganlarning eng ko'pi Samarqand shahri (18,3 foiz), Urgut (10,7), Pastdarg'om (9,9 foiz), Samarqand (8,2 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2019 yil 1 noyabr holatiga)



Sanoat statistikasi bo'limi

E.A.Qo'qonov

Tel: (66) 235-06-80